

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SIFAT DARAJALARI

Sobirjonova Husniyabpnu Elyorjon qizi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Farg'ona akademik litsey o'quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida sifat darajalari o'rtasidagi farq haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sifat, sifat darajalari, qo'shimcha va yordamchi so'zlar, qiyoslash, lingvistik taqqoslash.

Аннотация: В данной статье рассмотрена разница между уровнями качества в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: Имя прилагательное, степени прилагательных, окончания и вспомогательные слова, сравнение, лингвистическое сравнение.

Annotatsion: This article reflects on the difference between degrees of adjective in English and Uzbek.

Key words: Adjective, degrees of adjectives, additional and auxiliary words, comparison, linguistic comparison..

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamon har bir yosh avlodidan ingliz tilini bilishni talab qilmoqda. Ingliz tili xalqaro til sifatida dunyoga tanilishda davom etmoqda. Ingliz va o'zbek tilining har ikkisini o'ziga xos qiyin va oson grammatik qoidalari bor. Albatta, til o'rganishning ham o'ziga yarasha qiyinchiliklari bor. Ayniqsa, ingliz tilidagi sifat darajalarini ishlatishda ko'plab yoshlar xato qiladi.

Predmetning doimiy, o'zgarmas belgisini bildiradigan so'zlar sifat deyiladi. Sifat belgi ma'nosini bildiradi. Sifat qanday?, qanaqa?, qaysi?, so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. O'zbek tilida sifat darajalarining 4 turi mavjud. Bular:

- 1) Oddiy daraja
- 2) Qiyosiy daraja
- 3) Ortirma daraja
- 4) Ozaytirma daraja

Ingliz tilida esa sifat darajalarining 3 turi bor. Bular:

- 1) Oddiy daraja
- 2) Qiyosiy daraja
- 3) Ortirma daraja

Demak, ingliz tilida ozaytirma daraja yo'q.

Oddiy daraja

Positive adjectives

Belgining odatdagi me'yorda ekanini bildiruvchi va boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi sifat shakli *oddiy daraja* deyiladi. Oddiy darajaning qo'shimchasi yo'q: qizil,kata,shirin,toza.

Ingliz tilida ham xuddi shunday. Masalan:big, smart, beautiful,red.

Qiyosiy daraja

Comparative adjectives

Belgining me'yordan biroz oz yoki ko'p ekanini qiyosan ifodalaydigan daraja shakligi *qiyosiy daraja* deyiladi. O'zbek tilida qiyosiy daraja –**roq** qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Namuna: Chiroyli-chiroyliroq, zavqli-zavqliroq, dag'al-dag'alroq, uzun-uzunroq.

O'zbek tilida nisbiy sifatlarni qiyosiy darajada ishlatib bo'lmaydi. Misol uchun: devoriy-devoriyroq, g'ishtin-g'ishtinroq.

Ingliz tilida esa qiyosiy darajani bir bo'g'inli sifatlarga –**er** qo'shimchasini qo'shish ko'p bo'g'inli sifatlarga esa **more** so'zini qo'shish orqali hosil qilinadi.

Misol uchun: clean-cleaner, smart-smarter, cute-cuter; inteligant-more inteligant, successful-more successful, expensive-more expensive

Orttirma daraja

Superlative adjectives

Belgining me'yordan ortiq ekanini bildirgan sifat shakli orttirma deyiladi. O'zbek tilida orttirma daraja 3 xil yo'l bilan yasaladi:

1. Oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan **eng, g'oyat, juda, nihoyatda, bag'oyat** so'zlarini qo'shish orqali. Katta-nihoyatda kata, yosh-juda yosh.

2. Oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo'g'ini tovush o'zgarish bilan takrorlanadi. Misol uchun: bus-butun, yam-yashil, oppa-oston, qur-quruq.

3. Sifatning tarkibidagi birinchi yoki ikkinchi unlini cho'zish orqali hosil qilinadi.

Masalan: issiq-i:ssiq, achchiq-a:chchiq, uzun-u:zun, chiroyli-chiro:yli.

Ingliz tilida esa orttirma darajani bir bo'g'inli sifatlariga **the va –est** qo'shimchalarini qo'shish orqali va ko'p bo'g'inli sifatlariga esa **the va most** qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: dirty- the dirtiest, late- the latest; difficult-the most difficult, confused-the most confused.

Ozaytirma daraja

Belgining me'yordan kam ekanligini bildiruvchi shakli sifatning *ozaytirma daraja* shakli deyiladi. O'zbek tilida ozaytirma daraja 2 xil yo'l bilan yasaladi:

1. **-ish, -imtir, -mtir** qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi: oq-oqish, ko'k-ko'kimtir, qora-qoramtir, qizil-qizg'ish.

2. **Sal, biroz, picha, xiyla, nim, och** so'zlarini qo'shish orqali yasaladi: shirin-sal shirin, sariq-och sariq, uzun-picha uzun.

Ingliz tilida ozaytirma daraja yo'q.

Ingliz tilida notog'ri sifatlar mavjud.

Irregular adjectives

Good-better-the best

Bad-worse-the worst

Many/much-more-most

Little-less-least

Фойдаланилган адабиётлар:

1. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami Nargiza Erkaboyeva
2. www.englishgrammarhere.com
3. <https://uz.wikipedia.org>
4. <https://zenodo.org>
5. soff.uz
6. www.pinterest.com